AHOLI BANDLIGI NAZARIYALARI VA MAHALLAVIY BANDLIK MODELLARI

Madaminova Xusnida Shuxratovna
mustaqil izlanuvchi, FarDU, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Farg‘ona viloyati boshqarmasi mutaxassisi,
m.husnidaxon2705@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada aholi bandligini ta’minlashning klassik, neoklassik, keynscha, inson kapitali, qidiruv va moslashuv hamda institutsional nazariy yondashuvlari mahallaviy mehnat bozori xususiyatlari nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilingan. Xususan, mazkur nazariyalarning mahallalarda ish o‘rinlarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, kasbiy malakani oshirish va barqaror bandlikni ta’minlashdagi o‘rni yoritilgan. Xalqaro tajriba sifatida Irlandiyaning Community Employment dasturi, Hindistonning MGNREGA dasturi va 2026-yil 1-iyuldan amal qilayotgan VB-G RAM G qonuni, Janubiy Afrika Respublikasining EPWP va CWP dasturlari hamda O‘zbekistonda joriy etilgan mahallabay ishlash tizimi va haq to‘lanadigan jamoat ishlari mexanizmlari qiyosiy o‘rganilgan. Tahlillar asosida mahalliy mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini ta’minlash, aholi bandligini oshirish hamda mehnat resurslarini iqtisodiy faoliyatga jalb etishga yo‘naltirilgan besh bosqichli mahallaviy bandlik modeli ishlab chiqilgan. Taklif etilgan model jamoa ehtiyojlarini aniqlash, ish beruvchilar talabini o‘rganish, kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish va raqamli vositalar orqali mehnat resurslarini moslashtirish bosqichlarini qamrab oladi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribani sifat jihatidan qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Modelning iqtisodiy samaradorligi empirik jihatdan tasdiqlanmagan bo‘lib, uni baholash uchun bandlik qamrovi, ishga joylashish darajasi, olti oylik bandlik barqarorligi, bir ish o‘rniga sarflangan xarajatlar va sof ta’sir ko‘rsatkichlari asosida pilot tadqiqot o‘tkazish metodikasi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *aholi bandligi, mahalla, mehnat bozori, mahallaviy bandlik, jamoat ishlari, kooperatsiya, inson kapitali, faol mehnat bozori siyosati, raqamli moslashtirish.*

KIRISH

Aholi bandligini ta’minlash iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy natijalarini shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biridir. Ish o‘rni mavjudligi bilan insonning unga amalda kira olishi bir xil hodisa emas. Transport, kasbiy malaka, oilaviy majburiyat va axborot yetishmasligi bir hudud ichida ham bandlik imkoniyatlarini farqlaydi. Shu sababli milliy mehnat siyosatini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda mehnat bozori ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilning uchinchi choragida ishsizlik darajasi 4,9 foizni tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 0,8 punktga kamaygan [1]. Rasmiy sektorda band bo‘lganlar soni 8,58 million kishiga yetgan, norasmiy sohada ishlovchilar soni esa 4,38 million kishiga qisqargan [2]. Shunga qaramay, UNDP va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tadqiqotida

norasmiy bandlik qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida dolzarb muammo bo‘lib qolayotgani qayd etilgan [3]. Mamlakat miqyosidagi bunday agregat ko‘rsatkichlar ishsizlik va past sifatli bandlikning mahalla ichidagi sabablarini, ya’ni malaka mosligi, transport, oilaviy majburiyat va axborot yetishmasligini ko‘rsatmaydi.

Mahalla miqyosida bandlikni o‘rganishning dolzarbligi shundaki, uy xo‘jaligi, mahalliy tadbirkor va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot o‘rtasidagi aloqalar bevosita kuzatilishi mumkin. Biroq mahalla chegarasi mehnat bozorining tabiiy chegarasi emas: qo‘shni hududlarda ishlash, masofaviy mehnat va vaqtinchalik migratsiya ham hisobga olinishi lozim.

O‘zbekistonda bandlik sohasidagi munosabatlar 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi [4]. Qonunda haq to‘lanadigan jamoat ishlari tushunchasi belgilangan bo‘lib, bunday ishlarning buyurtmachi-ish beruvchilari qatoriga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham kiritilgan [4]. Prezidentning 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son Farmoniga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvardan har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi lavozimi ta’sis etildi [5]. Shu kuni qabul qilingan PQ-31-son qarorda esa hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, jumladan, ishsizlarni haq to‘lanadigan jamoat ishlariga tavsiya etish tartibi belgilandi [6]. Demak, mahalla bandlik siyosatining huquqiy jihatdan ham amaliy bo‘g‘iniga aylangan.

Ko‘rib chiqilgan manbalarda bandlik nazariyalari odatda milliy yoki tarmoq darajasida, jamoaga asoslangan bandlik dasturlari esa alohida amaliy keyslar sifatida yoritiladi. Nazariy tushuntirish, xorijiy dastur dizayni va mahalliy institutsional imkoniyatlarni yagona tahliliy tizimda bog‘lash esa mahalla darajasidagi siyosatni asoslash uchun zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bandlik nazariyalari mehnatga talab, ish izlovchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi moslik hamda davlat aralashuvining samaradorligini izohlaydi. Klassik va neoklassik yondashuvlarda bandlik ishlab chiqarish, kapital jamg‘arilishi, mehnat unumdorligi va ish haqi bilan bog‘liq [7–8]. Keyns nazariyasida esa samarali talab yetishmasligi ishsizlikning asosiy sabablaridan biri sifatida baholanib, davlat xarajatlari va jamoat ishlarining ahamiyati ta’kidlanadi [9].

Inson kapitali nazariyasi ta’lim va kasbiy malakani bandlikni oshiruvchi omil sifatida ko‘radi [10]. Mortensen va Pissarides hamda Shapiro va Stiglitz tadqiqotlarida ish o‘rinlari shakllanishi, mehnat bozori nomutanosibligi va axborot muammolari yoritilgan [11–13]. Granovetter esa ijtimoiy aloqalarning ish topishdagi ahamiyatini asoslagan [14].

Hududiy bandlik bo‘yicha Harris va Todaro migratsiya va kutilayotgan daromadni [15], Blanchard va Katz hududiy mehnat bozori moslashuvini [16], Moretti esa yangi ish o‘rinlarining mahalliy xizmatlar bandligiga ta’sirini o‘rgangan.

Card, Kluve va Weber tadqiqotlarida kasbiy o‘qitish hamda ish qidirishga ko‘maklashish dasturlarining ijobiy natijalari qayd etilgan. Biroq jamoat ishlari xususiy

sektor bandligini siqib chiqarish xavfini ham yuzaga keltirishi mumkin. Hindiston tajribasini o‘rgangan Imbert va Papp, shuningdek, Muralidharan va hammualliflari jamoat ishlari xususiy sektor ish haqi va bandligiga ham ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan .

O‘zbekistonda mazkur masalalar normativ hujjatlar va vazirlik hisobotlarida yoritilgan [4; 6]. Biroq ishga joylashtirish ko‘rsatkichlari bandlikning uzoq muddatli barqarorligini to‘liq ifodalamaydi. Shu bois mahallaviy bandlikni kasbiy malaka, daromad va doimiy ishga joylashish natijalari asosida baholash zarur.

Ilmiy adabiyotlar tahlili bandlikni ta’minlash ko‘p omilli iqtisodiy va institutsional jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Uning samaradorligi nafaqat yaratilgan ish o‘rinlari soni, balki mehnat resurslarining malakasi va ish beruvchilar talabiga muvofiqligi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, hududiy mehnat bozorida ishchi kuchining kasbiy tarkibi, iqtisodiy faolligi va daromad olish imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, bandlik dasturlarini ishlab chiqishda hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va mavjud resurs salohiyatini hisobga olish lozim. Jamoat ishlari qisqa muddatli daromad manbai bo‘lishi bilan birga, aholini doimiy ish bilan ta’minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar bilan to‘ldirilishi kerak. Kasbiy qayta tayyorlash, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va xususiy sektor bilan hamkorlik qilish ushbu jarayonning muhim yo‘nalishlaridir.

Demak, mahallaviy bandlikni baholashda ishga joylashtirilganlar soni bilan cheklanmasdan, ishning davomiyligi, mehnat daromadi, kasbiy malaka, mehnat unumdorligi va iqtisodiy mustaqillik ko‘rsatkichlarini ham qamrab olish zarur. Mazkur yondashuv bandlik siyosatining real natijadorligini aniqlash va hududiy mehnat bozorini rivojlantirish bo‘yicha manzilli qarorlar qabul qilishning ilmiy asosini yaratadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy sintez, institutsional tahlil, qiyosiy keys, statistik tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, tasniflash va mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Tahlil birligi sifatida mamlakatning umumiy ishsizlik darajasi emas, balki aniq bandlik dasturi yoki mahalliy boshqaruv mexanizmi tanlandi. Keyslar maqsadli tanlov asosida ajratildi: Irlandiya — jamoaga asoslangan kasbiy integratsiya, Hindiston — qonuniy mehnat kafolati, Janubiy Afrika — ko‘p tarmoqli jamoat ishlari dasturi, O‘zbekiston — mahallabay muvofiqlashtirish. Tanlov ushbu mexanizmlar jamoaga asoslangan bandlikning turli institutsional shakllarini ifodalashiga asoslandi.

Nazariy sintez usuli jamoaga asoslangan bandlikning mazmuni, shakllari va iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirishda qo‘llanildi. Institutsional tahlil usuli orqali tanlangan mamlakatlarda bandlik dasturlarining huquqiy asoslari, boshqaruv mexanizmlari, mas’ul tashkilotlar va amalga oshirish tartiblari o‘rganildi. Qiyosiy keys usuli mamlakatlar tajribasini yagona mezonlar asosida taqqoslash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tasniflash usuli bandlik mexanizmlarini institutsional xususiyatlariga ko‘ra guruhlashda, mantiqiy umumlashtirish usuli esa o‘rganilgan tajribalar asosida xulosa

va takliflarni shakllantirishda foydalanildi.

Bandlik ko‘rsatkichlarini bir xil mazmunda talqin qilish uchun Xalqaro mehnat tashkilotining 19-Xalqaro mehnat statistikasi konferensiyasi (2013) rezolyutsiyasi va ILOSTAT tushunchalari asos sifatida olindi. Ushbu standartga ko‘ra bandlik haq to‘lanadigan yoki foyda keltiradigan ish bilan cheklanadi, haq to‘lanmaydigan uy va parvarish mehnati esa ish shakllaridan biri sifatida alohida hisobga olinadi; ishsizlik bilan ishchi kuchidan tashqarida bo‘lish holatini aralashtirmaslik muhim. O‘zbekiston qonunchiligida ham bandlik ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyat sifatida ta’riflanadi [4]. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali xalqaro mehnat standartlari va milliy qonunchilikdagi bandlik tushunchalarining mazmuni o‘zaro solishtirildi.

Statistik tahlil va indikatorlarni hisoblash usullari bandlik hamda ishsizlik ko‘rsatkichlarining mazmunini aniqlashtirish va ularni qiyoslashda qo‘llanildi. Ishsizlik darajasi \(U/L \times 100\) formulasi bilan ifodalanadi. Bu yerda U — ishsizlar soni, L — ishchi kuchi, ya’ni bandlar va ishsizlar yig‘indisi. Bandlik darajasi esa bandlar sonining tegishli yoshdagi aholiga nisbati (\(E/P \times 100\)) bo‘lib, O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi uni bandlar sonini mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soniga bo‘lib hisoblaydi. Ikki ko‘rsatkichning maxraji turlicha bo‘lgani uchun ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri almashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar ko‘rsatkichlarini maxraj ta’rifini tekshirmasdan taqqoslash mumkin emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bandlik nazariyalarini tizimli ravishda o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur nazariy yondashuvlarning har biri mahalla darajasida bandlikni shakllantiruvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarning muayyan jihatlarini izohlash imkonini beradi. Xususan, mehnatga talab va taklif muvozanati, aholining kasbiy malakasi, ish beruvchilar bilan ish izlovchilar o‘rtasidagi nomuvofiqlik, ijtimoiy aloqalar hamda davlat tomonidan amalga oshiriladigan bandlik dasturlarining samaradorligi o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, nazariyalarni mahalla miqyosida qo‘llash ularning amaliy imkoniyatlarini aniqlash, mavjud bandlik muammolarini tizimlashtirish va hududiy xususiyatlarga mos boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Bandlik nazariyalarining mahalliy mehnat bozori uchun tahliliy imkoniyatlari

Yondashuv	Asosiy mexanizm	Mahalla uchun tahliliy savol	Cheklov
Klassik va neoklassik [7-9]	Ish haqi, mehnat chegaraviy mahsuloti, resurslar taqsimoti	Mahalliy tadbirkor xarajati mehnat unumdorligiga mosmi?	Ish haqining pasayishi mahalliy talabni ham qisqartirishi mumkin
Keynscha [9]	Samarali talab yetishmasligi	Mahalliy buyurtma va vaqtinchalik jamoat ishlari talabni qo‘llab-quvvatlaydimi?	Xususiy ish o‘rinlarini siqib chiqarish ehtimoli
Inson kapitali [10]	Ta’lim, tajriba va malakaning	O‘qitish aniq ish beruvchi talabiga	Sertifikatlar soni ishga joylashuvga

	unumdorlikka ta’siri	bog‘langanmi?	aylanmasligi mumkin
Qidiruv va moslashuv [11-12]	Axborot va moslashuv ishqalanishlari	Vakansiya va ish izlovchi qanday uchrashadi?	Mahalla chegarasi mehnat bozori chegarasi emas
Samarali ish haqi va ijtimoiy tarmoqlar [13-14]	Ish haqi rag‘batlari; zaif aloqalar orqali axborot	Ish haqi darajasi va axborot manbalari ish topishga qanday ta’sir qiladi?	Zich mahalliy tarmoqlarda axborot takrorlanishi mumkin
Hududiy mehnat bozori [15]	Migratsiya, kutilayotgan ish haqi, mahalliy ko‘paytirgich	Mahalliy talab tashqi shoklar va migratsiyaga qanchalik sezgir?	Ko‘paytirgich kattaligi tarmoq va malakaga bog‘liq
Faol mehnat bozori siyosati	Dastur turi, davomiyligi va dizayni	Dastur ishtirokchining keyingi bandligini yaxshilaydimi?	Qamalish, siqib chiqarish va tanlov xatarlari

Jadvaldan ko‘rinadiki, bitta nazariya mahalla mehnat bozori muammolarini to‘liq tushuntirmaydi. Narx va unumdorlik yondashuvi mahalliy tadbirkor xarajatlarini, keynscha yondashuv talab yetishmasligini, inson kapitali va qidiruv nazariyalari esa malaka hamda axborot to‘siqlarini tahlil qilishga yordam beradi. Mahalla darajasida bu yondashuvlar quyidagicha qo‘llanadi. Tadbirkor xarajatlari, mehnat unumdorligi va ish haqi o‘rtasidagi nisbat tahlil qilinadi; ammo ish haqining pasayishi har doim bandlikni oshiradi, degan xulosaga kelish mumkin emas, chunki xarid qobiliyatining zaiflashishi mahalliy mahsulotlarga talabni ham kamaytirishi mumkin. Mahalliy infratuzilmaga buyurtma berish yoki vaqtinchalik haq to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish talabni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida talqin qilinadi, bunda loyihaning ijtimoiy foydasi, xarajatlari va xususiy ish o‘rinlarini siqib chiqarish ehtimoli alohida baholanishi zarur. Mahallada kasbiy o‘qitishni tashkil etishdan avval ish beruvchilarning haqiqiy ehtiyoji o‘rganilishi kerak; aks holda sertifikatlar sonining ko‘payishi ishga joylashish natijasiga aylanmasligi mumkin. Mahallaviy siyosat uchun ushbu nazariyalar bir-birini inkor etuvchi emas, turli muammolarni aniqlovchi tahliliy vositalar sifatida qo‘llanadi.

Irlandiyaning Community Employment (CE) dasturi uzoq muddat ishsiz fuqarolarni vaqtinchalik jamoat ishlariga jalb qilish, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va doimiy bandlikka qaytarishga qaratilgan. 2024-yilgi tadqiqotda dastur ishtirokchilarining o‘rta va uzoq muddatli bandlik natijalariga ijobiy ta’siri aniqlangan. Ushbu tajriba mahallalarda vaqtinchalik ishlarni kasbiy tayyorgarlik va doimiy ishga joylashish bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Hindistonning MGNREGA dasturi qishloq aholisiga yiliga 100 kun haq to‘lanadigan jamoat ishlarini kafolatlagan. Tadqiqotlarda uning xususiy sektor bandligi va ish haqiga ham ta’siri aniqlangan. 2026-yil 1-iyuldan kuchga kirgan VB-G RAM G qonuni ushbu kafolatni 125 kungacha oshirib, avvalgi tizimni almashtirgan. Tajriba jamoat ishlari mahalliy mehnat bozoriga ham ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

2004-yilda tashkil etilgan EPWP dasturi infratuzilma, ekologiya va ijtimoiy xizmatlar orqali vaqtinchalik bandlikni rivojlantiradi. 2019–2024-yillarda 5 million ish imkoniyati yaratish maqsad qilingan, 2023-yil oktabrga kelib 3,9 millionga

erishilgan. CWP dasturi esa fuqarolarga haftasiga ikki kun, yiliga 100 kunlik jamoat ishlarini taklif etadi. Ushbu tajriba mahalliy ehtiyojlar va jamoatchilik ishtirokiga asoslangan bandlikning ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda haq to‘lanadigan jamoat ishlari mahallalar ishtirokida tashkil etilib, xarajatlari Jamoat ishlari jamg‘armasi hisobidan qoplanishi mumkin [4]. 2022-yilda ushbu maqsadlar uchun 222 mlrd so‘m ajratilgan [6]. 2026-yilning dastlabki to‘qqiz oyida 824 ming fuqaro doimiy ishga joylashtirilgan, 980 ming nafar fuqaroning norasmiy bandligi rasmiylashtirilgan. Biroq ushbu ko‘rsatkichlar bandlikning uzoq muddatli barqarorligini ifodalamaydi. Shu sababli natijalarni olti oylik bandlik, daromad o‘zgarishi va xarajatlar asosida baholash maqsadga muvofiq.

Demak, O‘zbekistonda mahallabay tizim individual yo‘naltirish, yo‘llanma va buyurtmachi-ish beruvchi institutlarini yaratgan; ammo ochiq manbalarda mahalla kesimida ishtirokchilarning dasturdan keyingi bandlik davomiyligi bo‘yicha taqqoslanadigan ma’lumotlar topilmadi. Qiyosiy tavsif 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Mahallaviy bandlik mexanizmlarining qiyosiy tavsifi

Mamlakat va dastur	Maqsadli guruh	Ishning mazmuni va davomiyligi	Asosiy vazifa	Mahalla uchun saboq
Irlandiya, CE	Uzoq muddatli ishsizlar va mehnat bozorida qiyinchilikka duch keluvchilar	Jamoa doirasidagi vaqtinchalik, qisman bandlik; ta’lim va trening	Kasbiy integratsiya	O‘qitish va keyingi ishga o‘tish rejasi
Hindiston, MGNREGA / VB-G RAM G	Qishloq uy xo‘jaliklari (kattalar a’zolari malakasiz jismoniy mehnatga ariza beradi)	Yiliga 100 kun; 2026-yil 1-iyuldan 125 kun	Daromad xavfini kamaytirish, qishloq infratuzilmasi	Talabga mos jamoat ishlari; ish haqiga ta’sirni hisobga olish
Janubiy Afrika, EPWP / CWP	Ishsiz va kam ta’minlangan shaxslar	EPWP: har qanday davrga haq to‘lanadigan «ish imkoniyati»; CWP: haftasiga ikki kun, yiliga 100 kun	Vaqtinchalik ish va jamoa xizmatlari	Jamoa ishtiroki; ish imkoniyati barqaror ish emas
O‘zbekiston, mahallabay tizim	Ishsizlar va ish izlovchilar (hokim yordamchisi tavsiyasi bilan)	Vaqtinchalik haq to‘lanadigan jamoat ishlari, odatda kasbiy tayyorgarliksiz	Tadbirkorlik, bandlik va kambag‘allikni qisqartirish	Individual yo‘naltirish; mahalla — buyurtmachi

Qiyoslash natijasida uch xil ustuvorlik ajratildi: kasbiy integratsiya, daromadni himoya qilish va jamoa xizmatlarini rivojlantirish. Ular muqobil emas. Hududning iqtisodiy holati hamda ishsizlik sababiga qarab birgalikda qo‘llanishi mumkin. XMT jamoat bandligi dasturlarida vaqtincha daromad va ijtimoiy aktiv yaratish vazifalari birlashishini ta’kidlaydi. Qiyoslash yana bir umumiy xulosani ko‘rsatdi: yaratilgan «ish imkoniyatlari» yoki joylashtirilganlar sonini barqaror bandlik bilan tenglashtirish

baholashni buzishi mumkin; shu sababli dasturdan keyingi davomiylik va daromad alohida o‘lchanishi kerak.

MUHOKAMA

O‘zbekiston uchun integratsiyalashgan model.Taklif etilayotgan modelda mahalla muvofiqlashtiruvchi bo‘g‘in, tuman bandlik organi professional xizmat ko‘rsatuvchi, tadbirkor esa real mehnat talabini shakllantiruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Vakolatlar amaldagi qonunchilikka muvofiq taqsimlanishi, mahalla esa ish beruvchining shartnomaviy majburiyatlarini o‘z zimmasiga olmasligi kerak.

Model Adabiyotlar tahlilida ko‘rsatilgan to‘rtta xatarni kamaytirishga yo‘naltirilgan: qamalish samarasi (ishtirokchi dastur davomida ham ish qidirishda va ish beruvchilar bilan aloqada bo‘lishi lozim); dastursiz ham ish topadigan shaxslarni qamrab olish (maqsadli guruh diagnostika asosida aniqlanadi); xususiy ish o‘rinlarini siqib chiqarish (jamoat ishlari ularni almashtirmaydigan yo‘nalishlarda tashkil etiladi); ish haqi dizayni (vaqtinchalik ish haqi dasturning qamrovini toraytirmasligi va maqsadli guruhni noto‘g‘ri tanlashga olib kelmasligi kerak).

Birinchi bosqich — diagnostika. Ish izlovchining malakasi, ish vaqti bo‘yicha imkoniyati, transportga kirishi va istagan faoliyati ixtiyoriy ravishda aniqlanadi. Ma’lumotlar faqat belgilangan maqsad uchun yig‘iladi. Ish beruvchilardan esa vakansiyaning ish haqi, ish tartibi va malaka talabi olinadi. Bu bosqich qidiruv va moslashuv nazariyasida tavsiflangan axborot ishqalanishlarini kamaytirishga qaratilgan [11].

Ikkinchi bosqich — yo‘naltirish. Ishga tayyor shaxsga vakansiya taklif qilinadi; malakasi yetishmagan fuqaro aniq ish beruvchi talabi bilan bog‘langan o‘quv kursiga yuboriladi; daromadga shoshilinch ehtiyoji bo‘lgan shaxsga qonuniy vaqtinchalik jamoat ishi taklif etiladi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha natija alohida yuritiladi. O‘qitish natijalari o‘rta muddatda ijobiy ekani kursni aniq ish beruvchi talabi bilan bog‘lash zarurligini kuchaytiradi.

Uchinchi bosqich — kooperatsiya. Hunarmandlar, tomorqa egalari yoki xizmat ko‘rsatuvchilar o‘z ixtiyori bilan uskunadan birgalikda foydalanish, xomashyo xaridi, sifat nazorati va mahsulot sotish mexanizmlarini tashkil etishi mumkin. Kooperatsiya samarasi a’zolarning real daromadi, xarajatlari va bozorga kirishi orqali tekshiriladi; a’zolikning o‘zi ish o‘rni sifatida qayd etilmaydi. Agar bunday faoliyat mahalliy tovar va xizmatlarga talabni kengaytirsa, mahalliy ko‘paytirgich orqali qo‘shimcha bandlik yaratishi mumkin, biroq uning kattaligi tarmoqqa qarab farqlanadi va mahallada alohida baholanishi kerak.

To‘rtinchi bosqich — raqamli moslashtirish. Platformada vakansiya va ish izlovchi profili muvofiqligi, o‘qishga yo‘llanma, suhbat natijasi hamda ishga kirish holati kuzatiladi. Algoritmik tavsiya yakuniy qarorni almashtirmaydi. Raqamli savodxonligi past fuqarolar uchun yuzma-yuz xizmat saqlanishi lozim.

Beshinchi bosqich — monitoring. Dastur tugagach ishning davomiyligi, mehnat daromadi va shartnoma holati tekshiriladi. Bu yondashuv bir martalik ro‘yxatga olish bilan haqiqiy iqtisodiy natijani farqlashga xizmat qiladi. Bosqichlar, ularning nazariy asosi va natija ko‘rsatkichlari 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval

Mahallaviy bandlik modelining bosqichlari va natija ko‘rsatkichlari

Bosqich	Mazmuni	Nazariy asos	Natija ko‘rsatkichi
1. Diagnostika	Ish izlovchi malakasi, imkoniyati va ish beruvchi talabini ixtiyoriy aniqlash	Qidiruv va moslashuv [11]; ijtimoiy tarmoqlar [14]	Qamrov (R)
2. Yo‘naltirish	Vakansiya, ish beruvchiga bog‘langan o‘qitish yoki vaqtinchalik jamoat ishi	Inson kapitali [10]; faol siyosat	Ishga joylashish (J) yo‘nalishlar bo‘yicha
3. Kooperatsiya	Uskuna, xomashyo, sifat nazorati va sotishni ixtiyoriy birgalikda tashkil etish	Mahalliy ko‘paytirgich	A’zolarning real daromadi, xarajati, bozorga kirishi
4. Raqamli moslashtirish	Profil va vakansiya muvofiqligi, yo‘llanma, suhbat va ishga kirish kuzatuvi	Qidiruv va moslashuv [11-12]	Moslashtirishdan ishga kirishgacha o‘tgan vaqt
5. Monitoring	Olti oydan keyingi bandlik, daromad va shartnoma holati	Dastur baholash	Barqarorlik (S), xarajat (C), sof ta’sir (Δ)

Mahallaviy siyosat natijasini baholashda kamida uch turdagi ko‘rsatkich ajratilishi taklif etiladi: xizmat hajmi, bandlik natijasi va iqtisodiy barqarorlik. Xizmat hajmi konsultatsiya yoki o‘qitish bilan qamrab olinganlarni, natija ishga kirganlarni, barqarorlik esa belgilangan davrda ishini saqlab qolganlarni aks ettiradi.

Qamrov $R=Q/M\times100$ formulasi bilan aniqlanadi, bunda Q — xizmat bilan qamrab olinganlar, M — maqsadli guruh soni. Ishga joylashish ulushi $J=B/N\times100$; olti oylik barqarorlik $S=B6/B\times100$. Bu yerda N — dastur ishtirokchilari, B — ishga kirganlar, B6 — olti oydan keyin ham band bo‘lganlar. Takroriy yozuvlar yagona identifikator orqali chiqarib tashlanadi; kuzatuvda yo‘qolganlar alohida ko‘rsatiladi.

Shartli hisob: 100 ishtirokchidan 60 nafari ishga kirsa va ulardan 45 nafari olti oydan keyin band bo‘lsa, $J=60/100\times100=60$ foiz, $S=45/60\times100=75$ foiz. Ushbu raqamlar faqat metodik misol, haqiqiy mahalla statistikasi emas.

Dastur xarajatining barqaror bandlikka nisbati $C=X/B6$ formulasi bilan aniqlanadi, bunda X — dasturning umumiy xarajati. Masalan, shartli ravishda X=900 mln so‘m va B6=45 bo‘lsa, C=20 mln so‘m. Biroq bunday nisbat sababiy samaradorlikni o‘lchamaydi: dastursiz ham ish topgan shaxslar bo‘lishi mumkin. Ta’sirni aniqlash uchun taqqoslash guruhi, dastlabki ko‘rsatkich va keyingi kuzatuv zarur. Eng sodda variantda sof ta’sir «farqlar farqi» usuli bilan $\Delta=(Y1P-Y0P)-(Y1T-Y0T)$ formulasi orqali baholanadi, bunda Y — natija ko‘rsatkichi (masalan, ishga joylashish ulushi), P — dastur (pilot) guruhi, T — taqqoslash guruhi, 0 va 1 — dasturdan oldingi va keyingi davr. Shartli misol: dastur guruhida ishga joylashish ulushi 30 foizdan 50 foizga, taqqoslash guruhida esa 30 foizdan 40 foizga oshsa, $\Delta=(50-30)-(40-30)=10$ foiz punkti. Bu raqamlar ham faqat metodik misol. Ishsizlik bilan birga vaqt bo‘yicha to‘liq bo‘lmagan bandlik ham e’tiborda bo‘lishi kerak.

Pilot tadqiqot uchun iqtisodiy ixtisoslashuvi turlicha mahallalarni tanlash,

dasturga kirish mezonlarini oldindan belgilash va natijalarni jins, yosh hamda hudud bo‘yicha ajratish tavsiya etiladi. Hindiston tajribasida dasturning hududlarda ketma-ket joriy etilishi erta va kech qamrab olingan hududlarni solishtirish imkonini bergan; xuddi shunday, mahallalarda modelni bosqichma-bosqich joriy etish taqqoslash guruhini shakllantirishga yordam beradi. Ixtiyoriy rozilik, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash va shikoyat qilish imkoniyati ajralmas talabdir.

Tahlil quyidagi tekshiriladigan takliflarni ilgari surish imkonini beradi. Birinchidan, kasbiy o‘qitish aniq vakansiya talabiga bog‘langan bo‘lsa, o‘qitish bilan qamrab olinganlarning ishga joylashish ulushi bunday bog‘lanishsiz o‘qitishdagidan yuqori bo‘ladi. Ikkinchidan, jamoat ishlari ishtirokchilari dastur davomida ish qidirishni davom ettirsa, dasturdan keyingi band bo‘lish ehtimoli oshadi, ya’ni qamalish samarasi kamayadi. Uchinchidan, vakansiyalar va ish izlovchilar profili yagona raqamli platformada yuritilsa, moslashtirishdan ishga kirishgacha o‘tgan vaqt qisqaradi. Bu takliflar mazkur maqolada empirik jihatdan tekshirilmagan va pilot tadqiqotda sinovdan o‘tkazilishi lozim.

Tadqiqotning cheklovi — mamlakatlar dasturlari turli huquqiy va fiskal sharoitlarda ishlaydi. Qiyosiy tavsif asosida ularning sof ta’sirini yoki O‘zbekistonda kutiladigan ish o‘rinlari sonini aniqlab bo‘lmaydi. Hindistonning yangi qonuni ta’siri tahlilga kiritilmagan, O‘zbekiston bo‘yicha ma’lumotlar esa asosan ma’muriy hisobotlarga tayanadi. Takliflar pilot sinov natijalari bilan tekshirilishi lozim.

XULOSA

Bandlik nazariyalarining qiyosiy tahlili mahallaviy mehnat bozori muammolarini yagona nazariya bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Mehnat narxi va unumdorligi, samarali talab, kasbiy malaka, axborot xarajatlari hamda migratsiya birgalikda e’tiborga olinishi kerak. Xorijiy dasturlar mahalliy xizmat, daromad himoyasi va kasbiy integratsiyani birlashtirishning turli shakllarini namoyon etadi: Irlandiyada ishtirokchining keyingi kasbiy yo‘li, Hindistonda daromad kafolati va uning mahalliy ish haqiga ta’siri, Janubiy Afrikada jamoa ishtiroki va «ish imkoniyati» hamda barqaror ish o‘rtasidagi farq alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston uchun mahallabay diagnostika, ish beruvchiga bog‘langan ta’lim, ixtiyoriy kooperatsiya, raqamli moslashtirish va keyingi monitoringni birlashtirish taklif etiladi. Mazkur modelning ustuvor vazifasi vaqtinchalik faollikni barqaror daromad keltiruvchi bandlikka aylantirishdir. Modelni baholash uchun qamrov, ishga joylashish, olti oylik barqarorlik, xarajat va sof ta’sir ko‘rsatkichlaridan foydalanish, ta’sirni esa taqqoslash guruhi bilan o‘lchash tavsiya etiladi.

Amaliy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

– mahalla diagnostikasini ixtiyoriylik va shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash talablari asosida tashkil etish;

– kasbiy o‘qitishni faqat aniq ish beruvchi talabi mavjud bo‘lgan yo‘nalishlarda o‘tkazish;

– haq to‘lanadigan jamoat ishlarini xususiy ish o‘rinlarini siqib chiqarmaydigan va ishtirokchining ish qidirishini to‘xtatmaydigan tarzda tashkil etish;

– hisobotlarda joylashtirilganlar sonini olti oydan keyingi barqaror bandlikdan

ajratib yuritish;

– modelni mahallalarda bosqichma-bosqich joriy etib, taqqoslash guruhi bilan pilot baholashni o‘tkazish.

Modelning samarasi kelgusida mahalla darajasidagi empirik ma’lumotlar bilan baholanishi zarur. Shu bois keyingi tadqiqotlar pilot mahallalardagi kuzatuv ma’lumotlari asosida talabni rag‘batlantirish, kasbiy tayyorgarlik va kooperatsiyaning bandlik barqarorligiga alohida hamda birgalikdagi ta’sirini baholashga qaratilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Spot.uz. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi 5 foizdan pasaydi (Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumoti). – 2025-yil 13-noyabr. – https://www.spot.uz/oz/2025/11/13/unemployment/
2. Anhor.uz. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi pasaydi. – https://anhor.uz/uzl/news/o-zbekistonda-ishsizlik-darajasi-pasaydi/
3. UNDP, Center for Economic Research and Reforms. Informal Employment in Uzbekistan. – 2025. – https://www.undp.org/node/549611
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonuni. – https://lex.uz/docs/-5055690
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmoni. – https://president.uz/oz/lists/view/4868
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-son «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. – https://lex.uz/docs/-5758155
7. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
8. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817.
9. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – Ch. 2, p. 4 ff.; ch. 3. – https://www.hetwebsite.net/het/texts/keynes/gt/chap02.htm
10. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: Columbia University Press for NBER, 1964.
11. Mortensen D. T., Pissarides C. A. Job Creation and Job Destruction in the Theory of Unemployment. – Review of Economic Studies, 1994. – Vol. 61, No. 3. – P. 397–415. – https://doi.org/10.2307/2297896
12. Pissarides C.A. Equilibrium Unemployment Theory. 2nd ed. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000.
13. Shapiro C., Stiglitz J.E. Equilibrium Unemployment as a Worker Discipline Device. – American Economic Review, 1984. – Vol. 74, No. 3. – P. 433–444.
14. Granovetter M.S. The Strength of Weak Ties. – American Journal of Sociology,

1973. – Vol. 78, No. 6. – P. 1360–1380.
15. Harris J.R., Todaro M.P. Migration, Unemployment and Development: A Two-Sector Analysis. – American Economic Review, 1970. – Vol. 60, No. 1. – P. 126–142.
16. Blanchard O.J., Katz L.F. Regional Evolutions. – Brookings Papers on Economic Activity, 1992. – No. 1. – P. 1–75.